

Andijon mashinasozlik instituti “Elektrotexnika, elektromexanika va elektrotexnologiyalar” kafedrası mudiri, dotsent Shukuraliyev Abrorbek taqrizi ostida.

TEXNIKA YO‘NALISHI TALABALARINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK MULOQOT TEXNIKASINING O‘RNI

Mannobboyev Shuxratbek Soyibjon o‘g‘li

Andijon mashinasozlik instituti

*“Elektrotexnika, elektromexanika va elektrotexnologiyalar”
kafedrası katta o‘qituvchisi.*

O‘zbekiston

shuxratbekmannobboyev@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-1266-0316

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik texnika usullar to‘plami, nutq va muloqot vositalari esa uni egallash vositalaridan biri ekanligi. Pedagogika quyidagi ikki guruh yig‘indisidan iboratligi kabilar haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.:

Kalit so‘zlar: pedagogik texnika, muloqot vositalari, nutqini ravon etmaslik, ortiqcha qattiq qo‘llik, mehnat terapiyasi, musiqa terapiyasi, kitob o‘qish, hazil mutoiba.

Kirish. Bugungi kunda texnika yo‘nalishi talabalariga bilim berishda pedagogik usullardan foydalanish muhimdir. Pedagogika quyidagi ikki guruh yig‘indisidan iborat

1. Pedagog o‘z xulqini boshqara olishi:

- a) o‘z gavdasini boshqara olishi (mimikalar, pantamimikalar);
- b) hissiyoti va kayfiyatini boshqara olishi (ortiqcha ruhiy charchashlarni yo‘qota olishi, ijodiy hissiyotlarni vujudga keltira olishi);
- v) ijtimoiy-pertseptik qobiliyatlari (diqqat «yuzidan uqib olish», kuzatuvchanlik, tasavvuri);
- g) nutq texnikasi nafas olishi, ovozini tinglovchilarga moslashishi, talaffuz tarzi, nutq sur‘ati.

Materiallar va uslublar:

Pedagogik texnika-o‘qituvchi xulqining o‘ziga xos shakli.

Pedagogik shaxs va jamoaga ta‘sir ko‘rsatishi bo‘lib, u ta‘lim tarbiyaviy jarayonning texnologiyasini ochib beradi. Unga pedagogni didaktik tashkilotchilik, konsruktivlik, kommunikativ ko‘nikmalari, qo‘yiladigan talablarning texnologik usullari, pedagogik ishlarni tashqil etish va boshqalar kiradi.

Yosh o‘qituvchilar pedagogik texnikasida quyidagi juz‘iy kamchiliklar uchraydi:

1. Talaba yoki uning ota-onasi bilan sidqidildan soʻzlasha olmaslik;
2. Gʻazabni toʻxtata olmaslik yoki uni oʻz oʻrnida ishlata olmaslik;
3. Oʻzida ishonchsizlikni engal olmasligi;
4. Nutqini ravon etmaslik;
5. Ortiqcha qattiq qoʻllik;
6. Xushmuomala boʻlishdan qoʻrqish;
7. Juda tez gapirish (ayniqsa darsda);
8. Ortiqcha harakat yoki bir joyda qotib qolish, qoʻllarini qaerga qoʻyishni bilmaslik;
9. Oʻz gʻavdasini tutishdagi kamchilik (bukchayib, erga qarab yurish, befoyda qoʻlish, ortiqcha harakat) turli jismlarni qoʻlida aylantirib yurishi.

Tovushdagi kamchiliklar: monoton-bir ohangni zerikarli, nutqning hayotiy emasligi, ifodali oʻqish malakasini yoʻqligi (diksiya).

Nutqdagi kamchiliklar: aniq talaffuz tarzining yoʻqligi, xona uchun zarur tovush qattiqligini tanlay bilmasligi.

Oʻqituvchining tashqi koʻrinishiag quyidagi talablar qoʻyiladi:

a) oʻz hissiy holatlarini boshqara olishi. Pedagogning talabalar bilan boʻladigan muloqoti, rasmiy xarakteriga ega boʻlganligi uchun, «mushaklar siqilishi», oʻziga ishonmaslik, tanglik sezgilarini vujudga keltiradi. Oʻqituvchilar doimo talabalar, ota-onalar va jamoatchilik nazoratida ishlaydi. Bu-oʻqituvchi fikrining qatʼiyligiga, ovoz apparati holatiga jismoniy holatiga (oyoqlarning qotib qolishi, qoʻllarni tayoqqa oʻxshab qolishi) ruhiy holatiga (kulgili holda qolishi oʻzini uddalay olmaydigan boʻlib koʻrinishi) taʼsir etadi. Boʻlarning hammasi boʻladigan mashgʻulotga oʻzini psixofizik nuqtai nazardan moslash, muloqat paytida oʻzining hissiy holatlarini boshqara olishini talab qiladi.

Oʻzini rostdash qobiliyatini quyidagi test yordamida tekshirib koʻrish mumkin:

Sizni kayfiyatingiz va ruhiy holatingizga oid quyidagi savollarga «Ha» yoki «Yoʻq» javobini bering.

- Siz doim oʻzingizni vazmin tuta olasizmi?
- Siz tabiatan joʻshqin kayfiyatga egamisiz?
- Auditoriyada dars oʻtayotganingizda va uyda siz doimo eʼtiborli va sergakmisiz?
- Siz oʻz hissiyotlaringizni boshqara olasizmi?
- Siz yaqin kishilaringiz va oʻrtoqlaringiz bilan xushmuomala va eʼtiborlimisiz?
- Yangilikni juda tez oʻzlashtirasizmi?
- Sizda qutulish zarur boʻlgan zararli odat yoʻqmi?

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

- Biror vaziyatdan soʻng siz «oʻzimni yaxshiroq tutishim kerak edi», deb afsuslanmaysizmi? «Ha» va «Yoʻq» larni hisoblab, xulosa yasang. Agar hamma javoblar ijobiy boʻlsa, u sizni vazminligingizni, oʻzingizni boshqara olishingizni yoki oʻzingizni yuqori baholaganingizni bildiradi. Agar hamma javoblar salbiy boʻlsa, bu sizni besaramjonligingizni, oʻzingizga ishona olmasligingizni, boshqalarga tanqidiy munosabatda boʻlishingizni bildiradi.

Oʻz-oʻzini sozlashning eng muhim usullari quyidagilardan iborat:

1. xushmuomalalik va kelajakka ishonch bilan qarashni tarbiyalash;
2. oʻz xulqini nazorat qilish (muskullar zoʻriqishini rostlash, harakat, nutq va nafas olishni rostlash);
3. faoliyatning biror turida hordiq chiqarish (mehnat terapeyasi, musiqa terapeyasi, kitob oʻqish, hazil mutoiba);
4. oʻz-oʻzini ishontirish, ixlos qilish.

Bundan tashqari ruhiy barqarorlikni tarbiyalashda V.A.Suxamlinskiyning quyidagi foydali maslahatlaridan foydalanish maʼquldir:

- ortiqcha badqovoq boʻlmaslik;
- boshqalar nuqsonlarini oshirib koʻrsatmaslik;
- hazil mutoiba moyil boʻlish;
- xushmuomalali boʻlish va kelajakka ishonch bilan qarash.

Bunday sifatlarni egallash shartlari quyidagicha: oʻz kasbini jamiyatdagi oʻrnini ongli ravishda tushunish, burch sezgisini, pedagogik ziyorlik, hissiy sezuvchanlik hamda oʻzini tahlil qilish va toʻgʻri baholash.

Darsga tayyorgarlik koʻrayotgan va oʻzida ishonchsizlik, qoʻrqinch sezayotgan yosh oʻqituvchi jismoniy va ruhiy erkinlikka erishish maqsadida quyidagicha relaksatsiya sezgisi (trening) ni oʻtkazishlari tavsiya etiladi.

a) Men tinchman, men ishonch bilan dars berayapman, bolalar meni tinglamoqdalar. Darsda oʻzimni bemalol his etaman. Men darsga puxta tayyorlanganman. Dars qiziqarli, bolalarni taniyman va koʻrib turibman. Men darsni yaxshi tugataman. Men bilan boʻlish bolalar uchun nihoyatda qiziqarli. Men oʻzimga ishonaman va tetikman. Men oʻzimni boshqara olaman. Kayfiyatim yaxshi, oʻqitish juda qiziqarli. Talabalar meni hurmat qiladilar, talablarimni bajaradilar. Darsdagi mehnat menga yoqadi, men oʻqituvchiman.

b) Pantamimika-bu gavda, qoʻl va oyoqlarning harakatidir. U asosiy fikrni ajratib koʻrsatishga imkon beradi. Yaqqol qiyofalarni gavdalanitiradi. Oʻqituvchi darsda talabalar oldida toʻgʻri turish holatini mashq qilish kerak (oyoqlar oraligʻi 12-15 cm, oʻng oyoq biroz oldinda), barcha harakatlar oʻzini oddiyligi va nafisligi bilan talabalar eʼtiborini tortishi zarur. Gavda tutish estetikasi: oldinga-orqaga tebranish, ogʻirlikni bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa oʻtkazib turish, stul suyanchigʻiga tayanib turish, boshni qashlash, qoʻlda biror buyumni aylantirib turish, burunni artish, quloq qashlash kabi zararli odatlarga alabalarga oʻz hissiyotingizni namoyish qilishni doimiy deb hisoblaysizmi?

v) Mimika-yuz muskullari orqali o'z sezgisi, fikri, kayfiyatini ifodalashdir. O'qituvchining yuz ifodasi va qarashi ba'zan talabalarga so'zdan ham qattiqroq ta'sir ko'rsatadi. Jest va mimika axborotning hissiy ahamiyatini oshiradi, uni puxtaroq o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Talabalar o'qituvchi kayfiyati va munosabatini uning yuzidan «uqib» turadilar. Shuning uchun ham o'qituvchining yuzi, uning sezgilarini ifodalash bilan birga, ularni yashirib turishi ham muhimdir. Oila tashvishlari, tashqaridagi kelishmovchiliklarni dars paytida o'qituvchi o'zining yuz ifodasida bildirmasligi kerak. Piyoda yurish, dam olish, kitob o'qish bilan ruhiy zo'riqishlarni bartaraf qilinadi. Yuz ifodasi va harakatlar faqat dars maqsadiga, o'quv-tarbiyaviy ishni yaxshilashga yo'naltirilishi zarur. Yuz ifodasida ko'zlar muhim o'rin tutadi. «Jozibasiz ko'zlar ma'nosiz qalbni aks ettiradi» (K.S.Stanislavskiy).

O'qituvchi yuz muskullarini va ko'zlarini tez-tez harakatlantirishdan, shu bilan birga ularni birday qotib qolishidan ehtiyot bo'lishi kerak. O'qituvchi nigohi talabalarga qaratilgan bo'lishi, bevosita ko'rish kontaktini vujudga keltirishi zarur. Devor, deraza va shipga qarab turishdan saqlanishi zarur. Baocha talabalarni diqqat markazida ushlab turishga intilishi zarur.

Natijalar va muhokamalar:

O'qituvchining takomillashgan nutqqa ega bo'lishi, o'quv materialini talabalar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlash garovidir. Bolalar o'qituvchi nutqiga juda e'tibor beradilar. Biror harf yoki tovushni noto'g'ri aytilishi kulgiga sabab bo'ladi. a) Nafas olish. Nafas olish organizmga hayot bag'ishlovchi fiziologik funksiyani bajaradi. Shu bilan birga nutqning energiya bazasi bo'lib ham hisoblanadi.

Nutq so'zlayotganda nafas olish fonatsion nafas olish deb ataladi (rengo-tovush). Kundalik hayotdagi nutq asosan dialog shaklida bo'ladi. Shuning uchun ham nafas olish ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Dars davomida o'qituvchi juda ko'p gapiradi, yangi mavzuni tushuntiradi, ma'ro'za o'qiydi. Agar o'qituvchi nafas olish texnikasini yaxshi egallamagan bo'lsa, uning qon tomirlarini urishi tezlashib, yuzini qizarib ketishi, nafas qisishi sodir bo'lishi mumkin.

Qaysi mushaklarning ishtirok etishiga qarab nafas olish 4 turga bo'linadi:

Yuqori nafas olish-elkalarni ko'tarilib tushishi va ko'krak qafasining yuqori qismi ishtirokida hosil qilinadi. Bu bo'sh, yuzaki nafas olish bo'lib, unda faqat o'pkaning yuqori qismi ishtirok etadi;

Ko'krak qafasi qovurg'alar o'rtasidagi mushaklar yordamida hosil qilinadi. Bunda ko'proq nafasning ko'ndalang hajmi o'zgaradi. Diafragma kam harakat qiladi. Shuning uchun ham nafas chiqarish kuchsiz bo'ladi.

Diafragma ishtirokidagi nafas-ko'krak qafasning bo'ylama hajmini ortishi hisobiga vujudga keladi. Bunda diafragma qisqaradi.

b) Tovush-chiqarilgan havoni hiqildoqdan o'tish paytida ovoz pardalarning tebranishi natijasida vujudga keladi. Tovush o'zining quyidagi xususiyatlari bilan harakterlanadi:

tovush kuchi-tovush apparati organlarining faol ishlashiga bog'liq. Chiqarilayotgan havo oqimining tovush tirqishiga bo'lgan bosimi qancha katta bo'lsa, tovush ham shuncha kuchli bo'ladi;

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

diapazon-tovush hajmi bo‘lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohanglar bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi nutqni bir ohangli (zerkarli) bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi. Bir ohangda gapirish axborotni idrok qilishni susaytiradi, uyquni keltiradi.

tembr-tovush rangdorligi, yorqinligi hamda uning yumshoqligi va alohidaligidir.

v) diktsiya-aniq talaffuz qilish. Talaffuzning aniqligi o‘qituvchi uchun professional zarurat bo‘lib, o‘qituvchi nutqini talabalar tomonidan to‘g‘ri tushunilishini ta‘minlaydi. Talaffuzning aniqligi aytilayotgan so‘z, bo‘g‘in va tovushlarning qat‘iy aniqligidir. U nutq apparati barcha a‘zolarini (lablar, jag‘, tishlar, yumshoq va qattiq tanglay, kichik til, kyokirdak, tomoq orqa devori, tovush naychalari) birgalikda ishlashiga bog‘liqdir. Til, lablar, yumshoq tanglay, kichik til, va paski jag‘ nutqda faol ishtirok etadi. Shuning uchun ham ularni mashq qildirish muhim ahamiyatga egadir.

g) Ritmika-bu ayrim so‘z va bo‘g‘inlarning aytilish muddati va to‘xtalishi, nutq va ifodalarning navbat bilan o‘z o‘rnida ishlatilishini bildiradi.

Xulosa:

Ritm nutqning eng asosiy qismidir, chunki «Nutq ohangi» va to‘xtamlar ham tinglovchilarga beixtiyor o‘zgacha hissiy tasir ko‘rsatadi. K.S.Stanislavskiy «Quruq so‘z» novdan tushayotgan no‘xatdek yopirilib chiqadi, ma‘noli so‘z esa xuddi simob to‘ldirilgan sharcha kabi asta-sokin shakllanadi degan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inog‘omov R., Toshmurodova K. «Pedagogika fani XXI asrda». T., 2000. «Yangi asr avlodi» nashriyoti.
2. Munavvarov A.K. «Pedagogika». T., «O‘qituvchi». 1996.
3. Tursunov I., Nishonaliyev U. «Pedagogika kursi». T., 1997.
4. «O‘zbek xalq pedagogikasi antalogiyasi». T., «O‘qituvchi». 1995.
5. A.Zununov, M.Xayrullaev, B.Tyxliev, N.Xotamov. «Pedagogika tarixi». T., 2000.